

QUYOSH/DIE SONNE LEKSEMASINING SEMANTIK JIHATDAN IFODALANISHI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15653379>

Akmaljon Mamarasulov

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi, nemis tili o'qituvchisi. O'zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda Quyosh/die Sonne leksemasining semantik jihatdan ifodalanishi (nemis va o'zbek tillari misolida) ga bag'ishlanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda har bir leksema semantik jihatdan o'ziga xos ifoda imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra olib qaraganda nemis va o'zbek tillarida quyosh sayyoramizning markaziy osmon jismi, yorug'lik va issiqlik chiqaradigan ulkan issiq shar sifatidagi ifoda imkoniyatlarining nemis tilida ham issiqlik tushunchasi, avvalo, quyosh bilan birga tushunilishi, ya'ni quyosh kosmonimi issiqlikni ifodalashi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar va iboralar: Quyosh, die Sonne, leksema, sema, ifoda, nemis va o'zbek tillari misolida, tilshunoslik, nuqtai nazar, semantika, o'ziga xos ifoda imkoniyati, sayyora, markaziy, osmon jismi, yorug'lik, issiqlik, shar, tushuncha, tushunilishi, quyosh kosmonimi.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЛЕКСЕМЫ SUN/DIE SONNE (в немецком и узбекском языках)

Акмалжон Мамарасулов

*научный сотрудник Ферганского государственного университета,
преподаватель немецкого языка. Узбекистан.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена семантическому выражению лексемы Sun/die Sonne (в немецком и узбекском языках). С лингвистической точки зрения каждая лексема имеет свои семантические возможности выражения. Соответственно, утверждается, что возможности выражения Солнца как центрального небесного тела нашей планеты, огромного горячего шара, излучающего свет и тепло в немецком и узбекском языках осознаются и в немецком языке, прежде всего, вместе с понятием жара, то есть космоним солнце выражает жар.

Ключевые слова и словосочетания: Солнце, die Sonne, лексема, сема, выражение, на примере немецкого и узбекского языков, лингвистика, точка зрения, семантика, уникальные выразительные возможности, планета, центральный, небесное тело, свет, тепло, сфера, понятие, понимание, солнечный космоним.

SEMANTIC EXPRESSION OF THE LEXEME SUN/DIE SONNE (in German and Uzbek)

Akmaljon Mamarasulov

research fellow at Fergana State University, teacher of German. Uzbekistan.

ABSTRACT

This article is devoted to the semantic expression of the lexeme Sun/die Sonne (in German and Uzbek). From a linguistic point of view, each lexeme has its own semantic expression possibilities. Accordingly, it is argued that the possibilities of expressing the Sun as the central celestial body of our planet, a huge hot ball radiating light and heat in German and Uzbek are also realized in German, first of all, together with the concept of heat, that is, the cosmonym sun expresses heat.

Key words and phrases: The Sun, die Sonne, lexeme, seme, expression, using the example of German and Uzbek languages, linguistics, point of view, semantics, unique expressive possibilities, planet, central, celestial body, light, heat, sphere, concept, understanding, solar cosmonym.

Ma'lumki, tilshunoslikda har bir leksema semantik jihatdan ifodalanadi. Nemis va o'zbek tillarida quyosh sayyoramizning markaziy osmon jismi, yorug'lik va issiqlik chiqaradigan ulkan issiq shar sifatida tushuniladi. Nemis tilida ham issiqlik tushunchasi, avvalo, quyosh bilan birga tushuniladi, ya'ni quyosh kosmonimi issiqlikni ifodalaydi. Quyidagi iboralarda issiqlik aynan quyosh kosmonimi orqali anglashiladi: muayyan darajalanishlarni beradi.

Nemis tilida issiqlik:

eine feuchte Hitze – nam issiqlik

eine tropische Hitze – tropik issiqlik

eine sommerliche Hitze – yozgi issiqlik

eine starke Hitze – kuchli issiqlik

eine anhaltende Hitze – doimiy issiqlik

Es ist eine Hitze zum Ersticken. – bu bo'g'uvchi issiqlik

Es ist drückend heiß – bu juda issiq.

Die Hitze nimmt zu – issiqlik kuchayib bormoqda

Bundan tashqari, nemis tilida quyosh so'zi ishtirok etgan iboralarda ham issiqlik assotsiatsiyaga kirishishini kuzatish mumkin.

der Sonnenaufgang – quyosh chiqishi

der Sonnenuntergang – quyosh botishi

Die Sonne sinkt – quyosh botmoqda

Die Sonne steht hoch am Himmel – quyosh baland osmonda.

Die Sonne lacht, scheint, strahlt – quyosh kuladi, porlaydi, nur sochadi.

Die Sonne sticht – quyosh uradi.

Die Sonne brennt heiß – quyosh yonyapti.

Die Sonne bricht durch die Wolken – quyosh bulutlarni yorib o'tadi.

in die Sonne liegen – quyoshda yotish

ein Sonnenbad nehmen – quyosh nurini olish

sich sonnen – quyoshga toblanmoq

sich in der Sonne wärmen – quyoshda isinish

Es ist nichts so fein gesponnen, es kommt doch ans Licht der Sonne. – Hech bir narsa oson ajratilmaydi, u quyosh nurida chiqadi⁵⁴.

Quyosh nemis tilining lisoniy manzarasida alohida e'tiborga molik timsol, ramz sifatida talqin qilinadi. Chunki xristian dinida quyoshni eng katta samo yorituvchisi deb, uni ezgulik va yaxshiliklarga bog'laydilar. Quyosh eng qadidimiy, ko'hna yorug'lik taratuvchi, u olamni nurafshon etib, ko'ngillarga osoyish beradi, shu bois slavyan muloqotida quyoshni erkalab, Slonse, slunk va sonse tarzida qo'llash holatlari mavjud.

Die Sonne – 1. Bizning sayyoramizning markaziy osmon jismi, yorug'lik va issiqlik chiqaradigan ulkan issiq shar. Yer quyosh atrofida aylanadi. Quyosh haqidagi turli afsonalar mavjud⁵⁵. Quyosh keltlar orasida alohida hurmatga sazovor bo'lgan, keltlar davrida topilgan turli xil kelt artefaktlarining ko'plab syujetlarida aniq ko'rsatilgan.

O'zbek tilida ham yuqoridagi ma'nolar tushunilib, quyosh haqida xalq og'zaki ijodida *"Quyosh nurlari bilan yuz ochmoq, yuzidan nur yog'adi, quyoshdek porlamoq"* kabi iboralar keng qo'llanishini ko'rishimiz mumkin.

She'riyatda ham quyosh kosmonimi turlicha talqin etiladi. Ayrim miniatyuralarda, qish kinolarida chiqqan quyoshni "Yosh qiz" ning nigohiga o'xshatish holatlari mavjud.

⁵⁴ <https://www.apophismen.de/zitat/8496>

⁵⁵ www.britannica.com

Quyosh – soʻzining maʼnosini beruvchi qoʻshma soʻzlarning bosh qismi quyosh soʻzi boʻlib, birikmalarda birinchi oʻrinda keladi. Masalan: quyosh qizdirishi, quyoshga ishlov berish, quyoshni sevuvchi va boshqalar.

nach der Sonne – quyoshdan keyin

der Schnee schmilzt an der Sonne – qor quyoshda eriydi.

hänge die Wäsche in die Sonne – kirlarni quyoshga osib qoʻying

in der Sonne liegen – quyoshga botish

sich sonnen – quyoshda toblanmoq

gegen die Sonne– quyoshga qarshi

die heiße, glühende, helle Sonne – issiq, gullayotgan, yorqin quyosh

die Sonnenstrahlen – quyosh nurlari

in der Sonne sitzen, liegen – quyoshda oʻtirmoq, quyoshda toblanmoq

sich in der Sonne wärmen– quyoshda isinmoq

Die Sonne geht auf–Quyosh chiqadi.

Dieses Dach schützt vor (der) Sonne – Bu tom quyoshdan himoya qiladi.

Osmon jismlari – qadimgi xristianlikda ibodat qilinadigan dastlabki obyektlar sifatida namoyon boʻlgan. Quyosh, oy va yulduzlar qadimgi xristianlarning diniy tasavvurlarida muqaddas timsollar sifatida talqin etilgan. Xalq ogʻzaki ijodida, xususan, ertaklarda, bosh qahramonlar hayotlaridagi murakkab va ogʻir vaziyatlarda osmon jismlariga, yaʼni quyosh, oy va yulduzlarga murojaat qilganlar. Bu timsollar orqali ular najot va yordam izlagan. Ertaklardagi bunday motivlar quyosh timsolining inson taqdiriga befarq boʻlmagan, baxtsizlikka hamdard ilohiy kuch sifatida talqin qilinishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xalq dunyoqarashida quyosh yovuzlik kuchlari – zulmat, sovuqlik, yolgʻon va yovuz ruhlar – ustidan jazoni amalga oshiruvchi kuch sifatida ham tasvirlangan.

Quyosh qadimiy tasavvurlarda va xalq ogʻzaki ijodida turli xil nomlar va timsollar orqali ifodalangan. Xalq tilida u “Xudo”, “Quyosh”, “Xurshid” (yaʼni shoh yoki shahzoda), “Xudoning quyoshi”, “Xudoning farzandi”, “solih quyosh”, “qizil quyosh” va “yorqin quyosh” kabi nomlar bilan atalgan. Bunday atamalar Quyoshga nisbatan eʼtiqodiy va estetik yondashuvni aks ettirgan hamda u orqali muqaddaslik, kuch-qudrat va hayotbaxshlik gʻoyalari ifodalangan⁵⁶.

Qadimgi eʼtiqodiy qarashlarga koʻra, quyosh har doim oʻz maqsadiga yetuvchi, faol va gʻalabakor kuch sifatida tasvirlanadi. U kunduzi yerni yoritadi, kechasi esa uni qorongʻilik bagʻriga topshiradi. Bahor va yozda issiqlik baxsh etadi, kuz va qishda esa sovuq kuchlarining ustunligiga yoʻl qoʻyadi. Bu tasavvurlar yil

⁵⁶ Karomatov I. Oʻzbek xalqining ogʻzaki anʼanalaridagi Quyosh timsoli. – Toshkent: Fan, 2001.

fasllari va quyosh holatining tabiat va inson hayotidagi roli bilan bog'liq bo'lgan mifologik va kalendar ramziyligini aks ettiradi⁵⁷.

Afsonaviy tasavvurlarda quyosh Xudoning qarorgohiga eng yaqin samoviy jism sifatida e'tirof etiladi. Uning nasl-nasabiga doir qarashlarga ko'ra, quyoshning otasi mavjud emas, faqat onasi bor deb hisoblangan. Bu e'tiqodlarda quyosh antropomorf xususiyatlarga ega, ya'ni yeydi, ichadi va uxlaydi. Bir rivoyatga ko'ra, quyosh yer yuzidagi bir yosh ayolni yoqtirib, unga uylanish niyatini bildiradi, biroq kirpi uni bu fikridan qaytaradi. Ushbu afsona orqali quyoshning ilohiy tabiatga mansubligi va inson bilan bevosita aloqa o'rnatishga daxl qilmasligi ramziy ifodalanadi⁵⁸.

Nemis mifologiyasida esa quyosh osmonda, dunyoning chekka burchagida joylashgan, ammo yerga nisbatan nisbatan yaqin bo'lgan hududda yashovchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu joy afsonalarga ko'ra, inson uchun yetib borish mumkin bo'lgan makon sifatida tasavvur etilgan. U yerda suv parilari, samoviy ayollar va boshqa g'ayritabiiy ruhlar va ma'budlar yashaydi. Bu timsollar quyoshning nafaqat fizikaviy, balki mifologik va diniy tasavvurlardagi markaziy o'rnini ko'rsatadi⁵⁹.

O'zbek xalq og'zaki ijodi – xalqning asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho merosdir. Bu merosda quyosh obrazining tutgan o'rni beqiyosdir. U hayot manbai, issiqlik, yorug'lik, ezgulik va mehr ramzi sifatida ko'p uchraydi. Ayniqsa, xalq ertaklari, afsonalari, maqol va matallarda quyosh kosmonimi orqali ruhiy va ma'naviy issiqlik obrazli tarzda ifodalanadi.

1. Quyosh – mehr va baraka manbai

Quyosh ko'plab og'zaki asarlarda mehribon ota yoki ona, donishmand yoki ilohiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ertaklarda:

“Quyosh har tongda dunyoni uyg'otadi, unga nur sochadi, yer yuzini bag'riga oladi...” – bu obrazda quyosh mehribonlik va g'amxo'rlik timsoli sifatida keltirilgan⁶⁰.

Bu yerda quyoshning issiqligi – nafaqat fizik harorat, balki ko'ngilni isitar mehr, insonlarga hayot bag'ishlaydigan quvvat sifatida talqin qilinadi.

2. Quyoshli kun – baxtli, umidli hayot timsoli

Maqol va matallarda quyosh bevosita iliqlik va ezgulik bilan bog'langan:

⁵⁷ Eliade M. The Myth of the Eternal Return: Cosmos and History. – Princeton University Press, 1991.

⁵⁸ Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. – Москва: Наука, 1984.

⁵⁹ Grimm J. Deutsche Mythologie (3rd ed.). – Berlin: Dümmler, 1883.

⁶⁰ “O'zbek xalq ertaklari”, 2-jild, Fan nashriyoti, Toshkent, 2003.

“Quyoshli kunning qadri yomg’irli kunda bilinadi.” Bu maqolda quyosh – baxt, baraka, yorug’lik ramzi bo’lib, hayotdagi og’ir kunlarga qarshi qo’yilgan obrazdir. U bilan birga ko’ngil iliqligi ham nazarda tutiladi⁶¹.

3. Afsonalarda quyoshning ilohiy harorati

Xalq afsonalarida quyosh ba’zan muqaddas narsa, tabiat qudrati, odamlarni jazolovchi yoki asrovchi kuch sifatida ko’rsatiladi. Masalan, “Quyosh va Oy” haqidagi afsonalarda:

“Quyosh osmonda charaqlab, odamlarning gunohini yuvishga harakat qiladi, ular to’g’ri yo’ldan adashmasin deb issiqlik beradi...”⁶².

Bu ifoda orqali quyosh harorati – ilohiy mehr va yo’lko’rsatish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu ruhiy issiqlik – xalqning adolatga, nurga, poklanishga intilishini anglatadi.

4. Bolalar folklorida quyosh – shodlik timsoli

Bolalar qo’shiqlarida quyosh hayotiylik, energiya, quvonch manbai sifatida tilga olinadi:

“Quyosh chiqdi, bog’lar ochildi, bolalar yugurdi maydonga...”

Bunday misralar xalq ongida quyoshning faqat harorat emas, balki quvonch va jonlanish manbai sifatidagi tasavvurini ko’rsatadi⁶³.

“Quyosh” – turkiy tillarda qadimdan mavjud bo’lgan kosmonim bo’lib, yerga issiqlik va yorug’lik beruvchi markaziy yulduzni bildiradi. Bu so’z qadimgi turkiy tilga borib taqaladi va hozirgi o’zbek tilida ham asosiy kosmik atama sifatida ishlatiladi.

“Quyosh” kosmonimida eng avvalo quyidagi semantik maydonlar vujudga kelishini ko’rishimiz mumkin:

Semantik guruhi	Misollar	Ma’nosi
Yorug’lik manbai	Quyosh nuri, quyosh charog’i	Nur, yorituvchi unsur
Issiqlik	Quyosh issig’i, quyoshda pishgan	Iliqlik, hayotbaxshlik
Yuksaklik	Quyoshdek baland, quyoshli orzular	Ilohiylik, yuksaklik
Vaqt, zamon	Quyosh chiqqanda, quyosh botganda	Kunlik tsikl, vaqt o’lchovi
Obraz	Quyoshdek ona,	Go’zallik, mehr, hayot

⁶¹ “O’zbek maqol va matallari”, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2010.

⁶² “Xalq afsonalari”, O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.

⁶³ “O’zbek bolalar folklori”, Pedagogika nashriyoti, 2008.

	quyosh kabi	ramzi
--	-------------	-------

O'zbek tilida "quyosh" semantikasi ishtirokida bir qancha iboralar mavjud bo'lib, ularning aksariyati metaforik va obrazli ma'no kasb etadi:

Ibora	Ma'nosi
Quyoshdek porlamoq	Yuzining yoki kimningdir holatining juda yorqin, nurli bo'lishi
Quyoshday ayol	Go'zal, iliq, hayotbaxsh ayol obrazini ifodalaydi
Quyosh ko'rmay yurmoq	Hayotdan chetda bo'lish, izolyatsiyada yashash
Quyoshli kunlar	Baxtli, iliq, quvonchli kunlar
Quyosh ko'tarildi / botdi	Vaqt o'tishini bildiradi, ko'pincha hayotiy jarayonlar metaforasi sifatida

Bundan tashqari "Quyosh" kosmonimi turkiy tillar mifologiyasida ham uchraydi. Masalan, Quyosh ko'pincha ayol ilohiy yoki ona obrazida tasvirlangan. U yorug'lik va hayot manbai bo'lib, yerga hayot bag'ishlaydi. Quyosh onasi (masalan, Altin Ana) ko'plab qadimiy turkiy eposlarda uchraydi. Quyosh nuri xayrning timsoli bo'lib, zulmatga qarshi kurashda markaziy kuch hisoblangan. "Mithra" (Mehr) ilohiyoti – quyosh va shafqat timsoli kabi ilohiy kuch va qudrat ramzi sifatida qaralgan.

O'zbek tili – xalq ruhiyati, dunyoqarashi va qadriyatlarining yorqin ifodasidir. Tilimizda kosmonim obrazli ifodalar, o'xshatishlar, ramzlar ko'p uchraydi. Bunday obrazlardan biri – quyoshdir. Quyosh so'zi o'zbek tili iboralarida nafaqat osmon jismi yoki harorat manbai sifatida, balki mehr-oqibat, hayotbaxshlik, umid va ruhiy ilqlilik timsoli sifatida keng qo'llanadi. Quyosh kosmonimining aynan issiqlik ma'nosida kelishini ko'rib chiqamiz.

Obrazli ifodalarda quyosh – mehr va ilqlilik timsoli sifatida:

Quyosh – hayot manbai. U issiqlik va yorug'lik beradi. Shu tabiiy holatdan kelib chiqib, o'zbek tili iboralarida u insoniy sifatlarni ifodalovchi ramzga aylangan. Xususan, mehribonlik, g'amxo'rlik, ochiqlik, umid kabi tushunchalar "quyosh" obrazi orqali ifodalanadi. Quyidagi iboralar bunga yaqqol misoldir:

"Quyoshdek mehribon ona" – bu ibora ona mehrining cheksizligini, qalb issiqligini ifodalaydi. Unda onaning mehr-muhabbati tabiatdagi quyosh kabi haroratli va hayotbaxsh tarzda tasvirlanadi⁶⁴.

"Hayotimga quyosh bo'lib kirding" – bu ifodada esa inson hayotiga kirib kelgan shaxsning shodlik, quvonch va ilqlilik manbai bo'lib xizmat qilgani ko'zda

⁶⁴ "Ona haqida maqollar va iboralar", O'zbek folklori to'plami, 2012.

tutiladi. Bunda “quyosh” – yurakka nur, ruhga taskin beruvchi timsol⁶⁵. “Yuragi quyoshdek ochiq inson” – bu yerda esa inson qalbining beg’arazligi, samimiyligi obrazli tarzda tasvirlanadi. Quyosh – bu yerda mehr va iliqlik manbai⁶⁶.

Issiqlik – nafaqat fizik, balki ruhiy holat ma’nosida:

O’zbek xalqining dunyoqarashi – tabiat bilan uyg’un. Shu bois “issiqlik” tushunchasi ko’plab iboralarda ko’ngilga yaqinlik, ruhiy iliqlik sifatida ham anglashiladi. Quyosh obrazi orqali aynan shunday ruhiy holat ifodalanadi: “Quyoshli kunlar orzusida yashaymiz” – bu yerda ob-havo emas, balki hayotdagi yorug’, ezgu, baxtli damlar nazarda tutiladi⁶⁷.

“Uning nigohi quyoshdek iliq edi” – bu ibora insonning ichki holatini, mehrga boyligini ko’rsatadi. Nigohdagi issiqlik – qalbdagi samimiyatning in’ikosi.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, “quyosh” leksemasi nemis va o’zbek tillarida nafaqat tabiatdagi yulduz sifatida, balki u ijobiy hissiyot, mehr, umid, ilohiy, turg’un iboralarda doimiy qo’llanuvchi metafora, milliy urf-odatlar va mifologiyalarda muqaddaslik timsoli, adabiyot sohasida go’zallik, mehr, umid va hayot ramzlarini ifodalab keladi. Ayniqsa, u bilan bog’liq iboralarda issiqlik tushunchasi ko’proq ruhiy-ma’naviy jihatdan anglashiladi. Bunday iboralar xalqimizning qalbidan, tabiatga bo’lgan yaqinligidan, insoniy qadriyatlarni ulug’lashni ko’rsatadi. U issiqlik, yorug’lik, mehr-muhabbat, baraka, quvonch va hayot timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu issiqlik ko’pincha fizik holat emas, balki ruhiy-axloqiy iliqlik sifatida ifodalanadi. Shunday tasvirlar xalq tafakkurida quyoshning chuqur ijobiy obrazini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karomatov I. O’zbek xalqining og’zaki an’alaridagi Quyosh timsoli. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Eliade M. The Myth of the Eternal Return: Cosmos and History. – Princeton University Press, 1991.
3. Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. – Москва: Наука, 1984.
4. Grimm J. Deutsche Mythologie (3rd ed.). – Berlin: Dümmler, 1883.
5. Eliade M. The Sacred and the Profane: The Nature of Religion. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1991.
6. Grimm J. Deutsche Mythologie (3rd ed.) – Berlin: Dümmler, 1883.

⁶⁵ O’zbek tili poetik obrazlar lug’ati, Toshkent, 2009.

⁶⁶ “Yorug’lik va obraz”, Til va adabiyot jurnali, 2020, №1.

⁶⁷ Ma’naviyat va milliy qadriyatlar, maqolalar to’plami, 2014.

7. Xalq afsonalari, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
8. O'zbek bolalar folklori, Pedagogika nashriyoti, 2008.
9. Ona haqida maqollar va iboralar, O'zbek folklori to'plami, 2012.
10. O'zbek tili poetik obrazlar lug'ati, Toshkent, 2009.
11. Yorug'lik va obraz, Til va adabiyot jurnali, 2020, №1.
12. Ma'naviyat va milliy qadriyatlar, maqolalar to'plami, 2014.

Elektron manbalar

1. <https://www.aporismen.de/zitat/8496>
2. www.britannica.com